

TARIXIY ILLYUSTRATSIYALAR YORDAMIDA O'QUVCHILARNI TANQIDIY VA KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH USULLARI (6-SINF MATERIALLARI MISOLIDA)

Ganiyev Temirbay Sultanbaevich – *katta o'qituvchi*
Qoraqalpog'iston Respublikasi pedagogik mahorat markazi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tarixiy illyustratsiyalar yordamida o'quvchilarni tanqidiy va kreativ fikrlashga o'rgatish usullari 6-sinf materiallari misolida asosida ko'rsatib o'tilgan va ularning afzalliklari to'g'risida so'z etilgan.*

Аннотация: *В этой статье рассматривается на примере материалов 6 класса показаны методы обучения учащихся критическому и творческому мышлению с помощью исторических иллюстраций и об их преимуществах.*

Kalit so'zlar: *Islohot. Tarix. Tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmalari. Rasmni tushuntir metodi. Kollaj hikoya mashqi. Tarixiy mozaika, Rebus.*

Ключевые слова: *Реформа. История. Навыки критического и креативного мышления. Метод объяснения картинки. Упражнение «Коллаж-рассказ». Историческая мозаика, Ребус.*

Bugungi kunda boshqa sohalar qatori ta'lim tizimida ham keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Islohotlar maktabgacha va maktab ta'limi tizimining boshqa xodimlari qatori pedagogik mahorat markazlari professor-o'qituvchilariga ham katta vazifalar va ma'suliyat yuklaydi. Darslarni yangi metodikalar asosida tashkil etish, o'quvchilarda 4K ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metodlardan samarali foydalanish va maktabdagi fan o'qituvchilariga metodik yordam berishi, ularning kasbiy rivojlanishiga yordam berishi talab qilinadi.

O'quvchilar ongida esa tarixiy bilimlarni shakllantirishda bugungi kuni ta'lim tizimiga keng joriy qilingan o'qitishning interfaol metodlaridan foydalanish yaxshi samara beradi [1. 160-161-bet].

Umumta'lim maktablarida o'quvchilar uchun asosiy qurol va bilim manbayi bu darslik hisoblanadi. Lekin, ushbu darsliklarda berilgan ma'lumotlarni o'quvchilar qanday o'zlashtirmoqda, o'quvchilarni qanday qilib samarali o'qitish mumkin, berilgan ma'lumotlari qaysi usullar bilan etkazib bergan maqul yoki tarix darslarida illyustratsiyalardan bilan ishlashda qanday usullardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi? Ushbu savollar har bir o'qituvchini o'ylantirishi tabiiy hol.

Shuning uchun, ushbu maqolamizda darslikda berilgan illyustratsiyalar bilan ishlash va o'quvchilarda tarixiy bilimlarni shakllantirishda yaxshi samara beradigan usullarni ko'rib o'tamiz.

Rasmni tushuntir metodi tarix darslarida illyustratsiyalar bilan ishlashda va o'quvchilarda tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda yaxshi samara beradigan metodlardan biri hisoblanadi.

Zarur materiallar: seriyali rasmlar

O'tkazish tartibi: O'quvchilarga rasm qo'rsatilib, shu asosda hikoya tuzish topshiriq etib beriladi.

Zarur bo'lgan taqdirda hikoyaning yangi so'zlarini oldindan o'rgatishga bo'ladi. Rasm hikoyaning bir qismi ekanligi haqida o'quvchilar ogohlantiriladi.



O'quvchilarga rasmda tasvirlangan voqyodan oldin nima bo'lganligi va voqyodan so'ng nima bo'lishi faraz qilish topshiriladi.

O'quvchilarning o'z variantlari tinglanib bo'lgandan so'ng voqya to'liq tushuntirilib beriladi.

O'quvchilar o'zlari tuzgan hikoya bilan voqyoaning haqiqiy syujetini taqqoslaydi.




O'quvchilarga voqyodagi asosiy fikrni topish topshiriq etib beriladi.

Kollaj hikoya mashqi

Maqsadi: o'quvchilarning tanqidiy fikrlash va muomila qobiliyatlarini rivojlantirish

O'tkazilish tartibi: o'quvchilarga darslikdagi mavzulardan olingan har xil rasmlar beriladi[2]. **Namuna:**



O'quvchilar qiyib olingan rasmlarni flipchartga yopishtirib hikoya tuzadi.

Bu mashqni mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda yoki bir bob, bo'lim yuzasidan ham amalga oshirib ushbu tarzda davom ettirishimiz va amalga oshirishimiz mumkin.

Ushbu mashqning afzalligi o'quvchilarning xotirasini mustahkamlaydi ya'ni o'rganilgan nazariy bilimlarini sinovdan o'tkazishga yordam beradi, tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmasi rivojlantiriladi, illyustratsiyalar bilan ishlashga o'rganadi. Diqqatini bir joyga jamlash va tahlil qilishga o'rgatadi hamda darsning samarali bo'lishiga yordam beradi.

«Tarixiy mozaika» mashqi

Jamoaning ishi darslikdagi ma'lum bir tarixiy voqyani aks ettiruvchi tarixiy rasmlardan birining kichik bir parchasini ko'rsatish (masalan, 1/8 yoki 1/4 qism) bilan boshlanadi [2].



Agar ishtirokchilar rasmning nomini taxmin qila olmasalar, parcha ko'payadi (ikki marta).



Jamoa rasm nomini qanchalik tez bilib olsa, shuncha ko'p ball oladi. Tarixiy mozaika mashqidan tarix darslarida illyustratsiyalar bilan ishlashda keng turda foydalanish mumkin.

Ushbu mashq o'quvchilarning diqqat-e'tiborini bir joyga jamlashga yordam beradi va xotirasini mustahkamlaydi, jamaoda ishlash va tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Tarix darslarida "Rebus" (rasmli topishmoqlar)lardan foydalanish ham yaxshi samara beradi. Ushbu metodni amalga oshirish uchun mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda o'quvchilarga mantiqiy fikrlashga qaratilgan rasmlar tavsiya etiladi. O'quvchilar rasmlarda yashiringan xulosa qilishga oid fikr, tarixiy voqyalikni topishi zarur bo'ladi.

O'quvchilar ushbu metod orqali berilgan rasmlarning qaysi tomonlariga asosiy diqqat qaratish zarurligini, ularning o'zora mantiqiy bog'liqligini aniqlaydi, o'rgangan tarixiy bilimlarini mustahkamlaydi, har qanday rasmning o'ziga xos mazmunga ega ekanligini tushunadi, fikrlarini umumlashtirib xulosa chiqarishga o'rganadi.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlab o'tmoqchimiz, yuqorida tavsiya qilingan interfaol metodlar va mashqlar o'quvchilarda illyustratsiyalar yordamida, tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmasi rivojlantirishga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. O'rgangan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olishga o'rgatadi va darsni samarali tashkil etishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Тошпўлатов, Я.Ғаффоров, Тарих ўқитиш методикаси. (дарслик) Т-2010. Турон-Иқбол, 326 б

2.Симбаева С. Белсенді оқу мен оқытуда қолданылатын әдістер (әдістемелік құрал) «Тұран-Астана» университеті баспаханасы, Нұр-Сұлтан- 2019.- 133 б

3.Сагдуллаев А.С. Костецкий В. А. Тарих (Қадимги дунё) Т-2022